QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASI MOYNAQ RAYONÍ HÁKIMINIŃ SH E SH I M I

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MO‘YNOQ TUMANI HOKIMINING Q A R O R I

2026-yil 27-aprel | 157-13-187-Q/26 | Mo‘ynoq tuman hokimligi

Mo‘ynoq tumani hokimligi huzuridagi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha tuman komissiyasining yangi tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositasi va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024-2028-yillarga mo‘ljallangan milliy strategiyada belgilangan chora-tadbirlar ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 913-XII-sonli Qonunining 6, 21^1-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositasi va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-sonli Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mo‘ynoq tumani hokimligi huzuridagi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha tuman komissiyasi yangi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman komissiyasi a’zolariga:

o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarning sifatli hamda o‘z vaqtida bajarish;

Davlat komissiyasi tomonidan giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq vaziyat yuzasidan beriladigan topshiriqlar ijrosini ta’minlash;

tumanda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hududiy komissiyasiga hisobot kiritib borish topshirilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Jumabaev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **B.Menglibekov**

Mo‘ynoq tumani hokimining
2026-yil 27-apreldagi
157-13-187-Q/26-son qaroriga
1-ilova

Tuman hokimligi huzuridagi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha tuman komissiyasi
TARKIBI

№	F.I.Sh		Lavozimi
1.	B.Menglibekov	-	Tuman hokimi, *komissiya raisi*
2.	M.Jumabaev	-	tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, *komissiya mas’ul kotibi*
3.	M.Urazbaev		tuman Prokurori
4.	J.Yusupov	-	tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i
5.	R.Annarazov	-	-tuman Adliya bo‘limi boshlig‘i
6.	Yu.Toǵızbaev	-	-tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i
7.	B.Jamalova		tuman hokimining o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i
8.	G.Toqsanbaeva		-Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘linmasi rahbari
9.	B.Jamalova	-	Rayon hákiminiń orınbasarı-Shańaraq hám hayal-qızlar bólimi baslıǵı, *komissiya baslıǵınıń orınbasarı*
10.	N.Baltabaev	-	-tuman Madaniyat bo‘limi boshlig‘i
11.	R.Asqarov	-	-tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
12.	M.Ametov	-	tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
13.	S.Rasbergenov	-	-O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i
14.	N.Keljanov	-	-tuman Sport maktabi direktori
15.	P.Umirzakov	-	-Yoshlar ishlari tuman bo‘limi boshlig‘i
16.	D.Abllaeva		-tuman hokimligi axborot xizmati rahbari

Eslatma: *Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning tarkibiga mazkur lavozimga yangidan tayinlangan shaxs kiritiladi.*